

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

## Doimiy aholi soni.

Qoraqalpog'iston Respublikasi doimiy aholisi soni 2019 yil 1 oktyabr holatiga 1889,8 ming kishini tashkil etib, 2019 yil boshidan 20,0 ming kishiga yoki 1,1%ga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 926,9 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 49,0 %), qishloq aholisi soni 962,9 ming kishini 51,0 %) tashkil etdi.

## E'tibor bering: 2019 yil yanvar-sentyabr

- Tabiiy o'sish **23,3 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **29,3 ming nafarni** tashkil etdi.
- **6,0 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **10,4 minta nikoh** va **0,9 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Yanvar-sentyabr oylarida

Yil boshiga doimiy aholi soni  
**1869,8 ming kishi**  
(2019 yil 1 yanvar holatiga)

Tirik  
tug'ilganlar  
soni  
**29,3**  
ming bola

Vafot  
etganlar soni  
**6,0**  
ming kishi

Ko'chib  
kelganlar **8,0**  
ming kishi

Ko'chib  
ketganlar  
soni  
**11,3**  
ming kishi

Tabiiy o'sishi  
**23,3**  
ming kishi

Mexanik o'sish  
(kamayish)  
**-3,3**  
ming kishi

Doimiy aholi soni  
**1889,8 kishi**  
(2019 yil 1 oktyabr holatiga)


## Demografik holat

### **Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha doimiy aholi soni (1 oktyabr holatiga)(ming kishi)**

	<b>2018 y.</b>	<b>2019 y.</b>	<i>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %</i>
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>1861,3</b>	<b>1889,8</b>	<b>101,5</b>
Nukus sh.	313,7	318,4	101,5
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	194,1	198,0	102,0
Beruniy	186,5	190,2	102,0
Qorao'zak	52,2	52,6	100,8
Kegeyli	89,3	89,7	100,4
Qo'ng'iroq	127,9	129,5	101,3
Qonliko'l	50,1	50,8	101,4
M o'ynoq	31,1	31,7	101,9
Nukus	48,8	50,0	102,5
Taxiyatosh	72,5	73,5	101,4
Taxtako'pir	39,9	40,0	100,3
To'rtko'l	209,1	213,1	101,9
Xo'jayli	120,7	122,2	101,2
Chimboy	114,9	115,9	100,9
Shumanoy	55,5	56,0	100,9
Ellikqal'a	155,0	158,2	102,1

## Demografik holat

### Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2019 yil 1 oktyabr holatiga, respublika jami aholisiga nisbatan, %da)



## Demografik holat


**Tug'ilish.** 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida 29,3 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 20,8 promilleni tashkil etdi hamda 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,4 promillega oshganligi (2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida 20,4 promille bo'lgan) kuzatildi.

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.




**Tumanlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti  
(2019 yil yanvar-sentyabr)**



## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida 6,0 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,3 promilleni tashkil etdi, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,3 promillega kamaygan (2018 yilning yanvar- sentyabr oylarida 4,6 promille bo'lган).

### **Tumanlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar- sentyabr)**



2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 56,9 % - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 11,8 % - o'simtalardan, 8,1 % - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,2 % - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 3,7 % - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,1 % - yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 14,2 % - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,3 ming nafarni tashkil etib, ularning 73,8 % - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 8,2 % - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 7,2 % - tug'ma anomaliyalardan, 1,3 % - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 0,6 % - yuqumli va parazitar kasalliklardan, 1,3% - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 7,6 % - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lism sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (2019 yil yanvar- sentyabr holatiga, jami vafot etganlarga nisbatan, %)



## Tumanlar kesimida asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %)



█ O'simtalardan    █ Qon aylanish  
tizimi kasalliklaridan    █ Nafas olish  
a'zolari kasalliklaridan    █ Ovqat hazm qilish  
a'zolari kasalliklaridan    █ Ovqat hazm qilish  
a'zolari kasalliklaridan Baxtsiz hodisa,  
zaharlanish va jarohatlanishlardan    █ Boshqa kasallikkardan

## Demografik holat

**Tabiiy o'sish.** 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 23,3 ming kishini tashkil etib, 2018 yil mos davriga nisbatan 1,3 ming kishiga (2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida 22,0 ming kishi bo'lgan) o'sgan.

Tabiiy o'sish — 23,3 ming kishi




Nikoh. 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 10,4 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 7,4 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Nukus shahri (24,4 %), Shumanay (10,8 %), Qanliko'l (8,0 %), Qorao'zak (4,1 %), Qo'ng'iroq (3,6 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.




**Tumanlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti**  
(2019 yil yanvar-sentyabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



**Nikohdan ajralishlar.** 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,9 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,7 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar sonida 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Taxtako'pir (88,9 %), Chimboy (25,5 %), va Sumanay (22,2 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

**Tumanlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti**  
(2019 yil yanvar- sentyabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



**Migratsiya.** 2019 yil yanvar-sentyabr oylarida respublika bo'yicha ko'chib kelganlar soni 8,0 ming kishini (7,9 ming kishi respublika hududlaridan, 0,1 ming kishi xorijiy mamlakatlardan), ko'chib ketganlar soni esa 11,3 ming kishini (8,5 ming kishi respublika hududlariga, 2,8 ming kishi xorijiy mamlakatlarga) tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 3,3 ming kishi bo'lib, 2018 yilning mos davrida minus 3,0 ming kishi bo'lган.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi)


	2018 yil yanvar-sentyabr	2019 yil yanvar- sentyabr
Ko'chib kelganlar	8,3	8,0
Ko'chib ketganlar	11,3	11,3
Migratsiya saldosi	-3,0	-3,3

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Chimboy (minus 755 kishi), Kegeyli (minus 601 kishi) va Qo'ng'iroq (minus 388 kishi) tumanlarida qayd etildi.

Migratsiya saldosining ijobiy darajasi Nukus shahrida (plus 266 kishi) kuzatildi.



**Poytaxtdagi demografik holat.** Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti Nukus shahrining doimiy aholisi soni 2019 yil 1 oktyabr holatiga 318,4 ming kishini tashkil etib, 2019 yil boshidan 3,5 ming kishiga yoki 1,1 %ga o'sgan.



Poytaxt aholisining tabiiy o'sishi 3,2 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,1 ming kishiga o'sishi (2018 yilning mos davrida 3,1 ming kishi bo'lган) kuzatildi.

FHDYO organlarida 2019 yilning yanvar- sentyabr oylarida 1,9 mingta nikoh va 0,2 mingta nikohdan ajralishlar qayd etildi.

1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 8,1 promilleni tashkil qilib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 1,5 ga o'sdi (2018 yilning mos davrida - 6,6 promille bo'lган).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 1,0 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davrida 1,0 promille bo'lган.

2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida 4,2 ming bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 17,7 promilleni tashkil etdi va 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,2 ga (2018 yilning mos davrida 17,5 promille bo'lган) o'sdi.

2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida 0,9 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, shundan 58 nafari 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soniga to'g'ri kelmoqda. O'lim koeffitsienti 4,1 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,3 ga kamaydi (2018 yilning mos davrida 4,4 promille bo'lган).

### **Nukus shahrida tuzilgan nikoh va ajrim** (1000 aholiga nisbatan, yanvar- sentyabr holatiga, promille)



■ Nikoh tuzish koeffitsiyenti  
■ Nikohdan ajralish koeffitsiyenti  
**Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi**  
(71) 230-82-18  
(61) 222-76-57